



YASHIL MOLIYA BOZORINING TASHKILIY XUSUSIYATLARI

PhD Aliqulova Nilufar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-0534-7701

aliqulova95@gmail.com

Annotatsiya. Jahon mamlakatlari moliyalashtirilayotgan har bir loyihaning atrof-muhitga, biznes subyektlariga va aholining sog'lig'iga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur baholagan holda, moliya bozorida yashil moliyalashtirish amaliyotini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni jadallashtirmoqda. Mazkur jarayon yashil moliyaviy instrumentlar orqali kapital jalb qilish mexanizmlarini to'liq va mukammal ishlab chiqish zarurati, ularni qonunchilik normalari bilan tartibga solishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani, shuningdek investorlar hamda emitentlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada faollashtirish va institutsional jihatdan samarali yo'lga qo'yish talablariga sabab bo'lmoqda. Natijada, yashil moliya bozorining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati keskin oshib, samarali bozor infratuzilmasini yaratish masalasi dolzarb tus olmoqda. Ushbu maqolada yashil moliya bozorini tashkil etish, uni takomillashtirish, samaradorligini oshirish hamda tartibga solish metodologiyasiga doir ilmiy-nazariy tahlillar keltiriladi.

Kalit so'zlar: yashil moliya, yashil kredit, yashil qimmatli qog'ozlar, yashil investitsiya, yashil moliyalashtirish mexanizmi, yashil moliya metodologiyasi.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ФИНАНСОВ

PhD Аликулова Нилуфар

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Страны мира ускоряют меры по внедрению практик зелёного финансирования на финансовом рынке, всесторонне оценивая влияние каждого финансируемого проекта на окружающую среду, хозяйствующие субъекты и общественное здоровье. Этот процесс обуславливает необходимость полного и совершенного развития механизмов привлечения капитала через инструменты зелёных финансов, усиливает потребность в их регулировании посредством законодательных норм и требует более активного взаимодействия, а также институционально эффективного налаживания сотрудничества между инвесторами и эмитентами. В результате резко возрастает необходимость разработки методологических подходов, обеспечивающих формирование и развитие рынка зелёных финансов, а вопрос создания эффективной рыночной инфраструктуры становится чрезвычайно актуальным. В данной статье представлены научные и теоретические анализы, касающиеся методологии организации, совершенствования, повышения эффективности и регулирования рынка зелёных финансов.

Ключевые слова: зелёные финансы, зелёный кредит, зелёные ценные бумаги, зелёные инвестиции, механизм зелёного финансирования, методология зелёных финансов.

ORGANIZATIONAL FEATURES OF THE GREEN FINANCE MARKET

PhD Alikulova Nilufar

Tashkent State University of Economics

Abstract. *The world's nations are accelerating measures to introduce green financing practices in the financial market, deeply evaluating the impact of every project they finance on the environment, business entities, and public health. This process necessitates the complete and perfect development of mechanisms for raising capital through green financial instruments, increasing the need to regulate them with legislative norms, and demanding more active cooperation and institutionally effective establishment of collaboration between investors and issuers. Consequently, the need to develop methodological approaches that ensure the formation and development of the green finance market is sharply increasing, and the issue of creating an effective market infrastructure is becoming urgent. This article provides scientific and theoretical analyses concerning the methodology of organizing, improving, increasing the efficiency, and regulating the green finance market.*

Keywords: *green finance, green credit, green securities, green investment, green financing mechanism, green finance methodology.*

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda iqlim o'zgarishi jarayonlarining jadallashuvi, tabiiy resurslarning kamayishi, global ekologik xavfsizlikning zaiflashuvi hamda iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishga moslashuvi zaruriyati, xalqaro moliyaviy institutlar va milliy iqtisodiyotlar oldiga yangi talab va majburiyatlarni qo'yimoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik jihatdan mas'uliyatli investitsiya faoliyatini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, uglerod hajmini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va ularni institutsional hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash global moliya arxitekturasi oldidagi eng muhim strategik vazifalardan biriga aylandi. Mazkur jarayonning markazida esa, davlatlar va korporativ sektor faoliyatini birlashtiruvchi, ekologik barqarorlik mezonlari asosida shakllanadigan, moliyaviy oqimlarning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlovchi yashil moliya bozori turadi.

Yashil moliya bozorining to'laqonli faoliyat yuritishi, avvalo, ushbu bozorning konseptual asoslarini belgilab beruvchi, ekologik tavakkalchiliklarni baholashni standartlashtiruvchi, investitsiyalarning ekologik ta'sir bo'yicha verifikatsiya jarayonini tartibga soluvchi hamda loyihalarning barqarorlik darajasini monitoring qilishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Zero, mazkur metodologik asoslar moliyaviy institutlar uchun nafaqat moliyaviy oqimlarning "yashilligi"ni aniqlash mezonlarini belgilaydi, balki mamlakatlar o'rtasida ekologik moliyalashtirish standartlarining uyg'unlashuviga, xalqaro hamkorlik mexanizmlarining takomillashuviga, investitsion jozibadorlikning oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida yashil moliya bozorining institutsional tarkibini shakllantirish jarayonida davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish usullarini joriy etish, moliyaviy regulatsiyani mustahkamlash, ekologik reyting tizimlarini yaratish, investorlar va emitentlar o'rtasidagi axborot almashinuvi sifati va shaffofligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro standartlar, xususan EU Taxonomy, ICMA Green Bond Principles, Climate Bonds Standard kabi me'yoriy hujjatlarga mos keluvchi milliy taksonomiyalarni ishlab chiqish va ularni milliy moliya tizimiga integratsiyalash bozor mexanizmlarining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijada, yashil moliya bozorini rivojlantirishda moliyaviy hamkorlikni kengaytirish, davlat-xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni institutsionallashtirish, shuningdek, moliyaviy instrumentlarning ekologik samaradorligini baholashda qat'iy ilmiy

yondashuvlardan foydalanish, ushbu bozorning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan metodologik, tashkiliy va huquqiy platformani yaratishni talab etmoqda. Mazkur ilmiy maqolada aynan ushbu masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritilib, yashil moliya bozorining shakllanishi, takomillashuvi va institutsional rivojlanishida metodologik yondashuvlar va tartibga solish mexanizmlarining tutgan o'rnini ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Global yashil iqtisodiyotga o'tish, yashil moliya bozorini rivojlantirish, kapital jalb qilish, yashil moliyaviy instrumentlar emissiyasiga bo'lgan talab ortib borayotgani, moliyalashtirilayotgan loyihalarning atrof-muhitni asrash borasidagi ijobiy yondashuvlarini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab olinadi. Bir qator xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida Xitoyning tabiiy resurslar bozorida yashil moliya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlar o'rganilgan. Davlat va xususiy kapitalni safarbar qilish natijasida barqaror rivojlanishga ta'siri, yashil moliyalashtirish tashabbuslari va YaIM o'sishi bilan bog'liq ijobiy natijalarga erishish, xususiy investitsiyalar davlat mexanizmlari bilan solishtirilganda yuqori samaradorlikni namoyish etishi, nafaqat iqtisodiy balki ekologik maqsadlarga ijobiy uyg'unlashuvining hosil bo'lishini rag'batlantirayotgan va tezlashtirishga intilayotgan strategik yo'l-yo'riqlarni taqdim etilgani yoritilgan (Shipan Sun, et al., 2025). Bilamizki, yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish, yashil moliyaviy instrumentlar emissiyasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyish qilayotgan davlatlar orasida aynan Xitoy ham alohiya yuqori o'rinlarni egallagan. Xitoyda yashil moliya bozori ekotimini yaxshi yo'lga qo'yilishi, qo'llab-quvvatlash jarayoni to'g'ri tashkil etilishi sabab samaradorlikka ham tez fursatlarda erishayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, ilmiy-tadqiqot olib borilishi jarayonida yashil moliya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha tahlillar asosli ravishda olib borilgan deb hisoblaymiz.

Yashil iqtisodiyotga o'tish, moliya bozorida yashil loyihalarni moliyalashtirishga bo'lgan talab va takliflarni orttirishga bo'lgan sa'i-harakatlar natijasida ko'zlanayotgan asosiy maqsadlardan biri kelajak avlod uchun tabiiy resurs manbalarini saqlagan holda yetkazish hisoblanadi. Bu jarayonda bevosita yashil moliyaning roli va ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Bir qator xorijiy olimlarning Xitoyda korxonalarining ekologik samaradorligini shakllantirishda yashil moliyaning roli bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari natijalariga ko'ra, ko'p o'lchovli yashil moliyalashtirish indeksi hamda korxona darajasidagi ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini shakllantirish, yashil moliya uchun cheklovlarni yumshatish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali yashil moliya ekotizimini to'g'ri va samarali tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi (Hainan Wang, 2025). Yashil moliyalashtirish jarayonini samarali tashkil etishda faqat birgina yo'l orqali erishish imkoni mavjud emasligi bois, Xitoy davlatida ham yashil moliya ekotizimini tashkil etishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy tomonlar sifatida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, cheklovlarni yumshatish, boshqaruv harajatlarini kamaytirish kabi yondashuvlar asosli keltirib o'tilgan deb ayta olamiz.

Yashil moliya bozorini yaratish, uni standartlashtirish, moliyaviy instrumentlar ko'lamini muvofiqlashtirish va rivojlantirishga bo'lgan talablar yuqoriligi iqtisodchi olimlar tomonidan yashil moliya Xitoyning yuqori sifatli rivojlanishini ilgari suruvchi muhim tashabbuslardan biri bo'lib hisoblanilishi e'tirof etilgan. Qolaversa, yashil moliya samaradorligi mikrokorxonalar hamda makroiqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoyda moliyaning shakllanishi, uning kelib chiqishi, yuqori darajadagi strategik dizayni va siyosiy-ijtimoiy me'yoriy bazasini o'z ichiga olgan rivojlanish jarayoniga umumiy ta'rif berish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan (Jiazhan Gao, 2025). Global o'tish jarayoni talab qilayotgan har bir harakatlar, ma'lum bir muammoning umumiyliigi, uning yechimi sifatida umumiy yoki tajribada ijobiy natijaga erishilishi orqali qo'llanish ommalashtirish maqsadga tezroq va samaraliroq erishishga sabab bo'ladi. Shu boisdan, olib borilgan tadqiqot ishiga


ko'ra yashil moliyaning taraqqiyoti, ta'sirlari va mexanizmlarini o'rganish, standartlashtirish hamda iqtisodiy, ekologik, texnologik va ijtimoiy ta'sirlari hamohangligida tajribaga erishish bu jarayonni sifatli va samaralo ekanligini namoyish qiladi deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada yashil moliya, yashil moliyalashtirish amaliyotining mazmun-mohiyati, konseptual ahamiyati va xalqaro moliya bozori amaliyotidagi holati tahlillari bilan qiyoslash, ilmiy umumlashtirish, guruhlashtirish va istiqbolli prognozlash kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Yashil moliya so'nggi yillarda global moliyaviy tizimning ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, uning ekotizimi iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik talablariga moslashtirishga qaratilgan institutsional, normativ-huquqiy va moliyaviy mexanizmlar majmuini o'z ichiga oladi. Mazkur ekotizimning shakllanishida moliya bozorining barcha ishtirokchilari — hukumatlar, markaziy banklar, moliya institutlari, investitsion fondlar, reyting agentliklari, mustaqil verifikatorlar va korporativ sektor — o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi, bu esa ekologik samarador loyihalarni aniqlash, moliyalashtirish va monitoring qilishning yaxlit metodologiyasini shakllantirishga imkon yaratadi. Yashil moliyalashtirish mexanizmi esa moliyaviy instrumentlar (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, barqarorlikka yo'naltirilgan investitsiya fondlari), tartibga solish standartlari, ekologik reytinglar, emissiya mezonlari va axborot oshkoraligini ta'minlovchi platformalardan iborat kompleks tizim bo'lib, ushbu elementlarning uyg'un ishlashi moliyaviy oqimlarni iqlimga mos iqtisodiy faoliyatga samarali yo'naltirilishini ta'minlaydi. Mazkur mexanizmning amaliyotga joriy etilishi, bir tomondan, investorlar uchun xavflarni aniq baholash va kapitalning uzoq muddatli barqaror loyihalarga oqimini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotlarda yashil infratuzilma, resurs tejamkor texnologiyalar va past uglerodli sanoatni shakllantirish jarayonlarini tezlashtiradi. Shu ma'noda, yashil moliyaning ekotizimi va moliyalashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslangan tartibga solish metodologiyasi orqali takomillashtirish davlatlar iqtisodiyotining ekologik barqaror transformatsiyasini ta'minlaydigan strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



1-rasm. Yashil moliya ekotizimi (Sumedha Bhatnagar, 2024)

Yashil moliya ekotizimida ishtirokchilar deb belgilangan rivojlanish moliya institutlari, hukumat, moliyachilar va loyiha ishlab chiqaruvchilari o'zaro integratsiyalashgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiya oqimlarini strategik boshqaradi. Bu esa moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi. Ushbu ishtirokchilar tomonidan shakllantiriladigan moliyaviy mexanizmlar, jumladan, fiskal rag'batlantirishlar,

normativ-huquqiy islohotlar, bozor mexanizmlari va texnologik innovatsiyalar, yashil loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirib, ularning risk darajasini kamaytirishga yo'naltiriladi. Yashil moliyaning mazkur mexanizmlari orqali barqaror o'sish, atrof-muhitni muhofaza qilish, kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish hamda iqlim o'zgarishiga moslashish kabi strategik maqsadlarga erishish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, mexanizmlarning samarali ishlashi global ekologik chaqiriqlarga javob bera oladigan iqtisodiy modelni shakllantirishga, xususan, uglerod izini kamaytirishga xizmat qiladi. Natija sifatida, yashil moliya vositalaridan foydalangan holda ifloslanish va issiqxona gazlari emissiyasining sezilarli kamayishi, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va iqtisodiyotning ekologik xavfsiz o'sishini rag'batlantirish mumkin bo'ladi. Mazkur tizimning kompleks ishlashi nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy barqarorlikni kuchaytirib, investitsiya muhitining yaxshilanishiga zamin yaratadi. Shu tariqa, yashil moliya mexanizmlari iqtisodiy, institutsional va texnologik omillarning uyg'unlashuvi orqali davlat va xususiy sektorlar uchun uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkoniyatlarini shakllantiradi.



2-rasm. Yashil moliyalashtirish mexanizmi tarkibi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Shu bilan birga, yashil moliya infratuzilmasining yanada takomillashuvi ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya bozorining chuqurlashuvi va resurs tejovchi ishlab chiqarish tizimlarining rivojlanishiga institutsional asos yaratadi. Yashil loyihalarga yo'naltirilgan kapital oqimlarining ortishi, o'z navbatida, iqtisodiyotning uglerodga qaramlik darajasini pasaytirib, iqtisodiy sektorlar kesimida transformatsion islohotlarni jadallashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonning tizimli

boshqarilishi davlat siyosati, bozordagi talab va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlaydi hamda milliy daromadning ekologik barqaror tarkibda shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada, yashil moliya nafaqat ekologik foyda, balki investitsion xavflarning kamayishi, institutsional ishonchning oshishi va iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladigan kompleks mexanizmga aylanadi.

Yashil moliyalashtirish tizimi iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni qayta tiklashga qaratilgan kompleks mexanizm bo'lib, unda moliyaviy institutlar, normativ-huquqiy tartibotlar, xavfsizlik choralarining integratsiyasi hamda ekologik nazorat instrumentlarining uyg'unlashuvi strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimning iqtisodiy blokida yashil investitsiyalarni rag'batlantiruvchi siyosiy va moliyaviy mexanizmlar, budjetlashtirishning barqaror yo'nalishlari, shuningdek ESG tamoyillari asosida risklarni boshqarish vositalari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi hal qiluvchi omil sifatida shakllanadi.

Normativ-huquqiy boshqaruvning takomillashuvi esa investitsiya jarayonlarida tartibga solish, monitoring va hisobot yuritish talablarining kuchayishi orqali yashil loyihalarining sifatini oshirib, ularni xalqaro standartlarga moslashtiradi. Atrof-muhitga doir xavfsizlik choralarining joriy etilishi, xususan, havoning ifloslanishini kamaytirish, uglerod izini qisqartirish, suv resurslaridan barqaror foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini ko'paytirish orqali ekologik barqarorlikning strategik infratuzilmasini shakllantiradi. Ekologik nazorat mexanizmlarining kuchayishi — ekologik audit, chiqindilarni boshqarish siyosati va yashil makon yaratish tashabbuslari — korxonalar faoliyatining ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu to'rt tarkibiy ustun o'zaro integratsiyalashgan holda iqtisodiy o'sishning sifatini oshirish bilan birga, atrof-muhitning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks moliyaviy arxitekturani shakllantiradi. Natijada yashil moliyalashtirish modeli milliy iqtisodiyotning transformatsion jarayonlariga chuqur singib, iqtisodiy va ekologik barqarorlikning o'zaro mustahkamlovchi mexanizmi sifatida strategik ahamiyat kasb etadi.

Yashil moliyalashtirishning institutsional tuzilmasi nafaqat moliya bozorlari barqarorligini oshirishga, balki iqtisodiy tizimning strukturaviy transformatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda iqtisodiy va ekologik omillar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, o'zaro to'ldiradi. Chunki barqaror iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy resurslarning yo'naltirilishi nafaqat rentabellik mezonlariga, balki ekologik samaradorlik, xavfsizlik ko'rsatkichlari va ijtimoiy mas'uliyat standartlariga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ayniqsa, yashil investitsiya oqimlarini boshqarish jarayonida ESG standartlari asosidagi baholash indikatorlari investitsiya xavfini aniqlash va kamaytirishning zamonaviy vositasi sifatida qo'llanilib, ularning milliy amaliyotga joriy etilishi global kapital bozorlariga integratsiya jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish orqali yashil loyihalar uchun davlat tomonidan yaratiladigan kafolatlar, subsidiyalar, preferensiyalar va soliq imtiyozlari moliyaviy rag'batlantirish tizimini shakllantirib, korxonalarni ekologik innovatsiyalarni joriy etishga undaydi. Bunday huquqiy baza investitsion muhitning shaffofligini oshirish bilan birga, investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan moliyaviy makonni yaratadi. Shu bilan birga, tartibga solish institutlari tomonidan doimiy monitoring, mustaqil ekologik audit va hisobotlarning xalqaro formatlarda yuritilishi yashil loyihalar natijalarining real ta'sirini baholash imkonini beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan xavfsizlik choralarining kuchaytirilishi esa iqtisodiy faoliyatning ekologik oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Atmosfera ifloslanishining nazorat ostida bo'lishi, korxonalar tomonidan chiqindilarni qayta ishlash darajasining oshishi, suv resurslaridan samarali foydalanish va yer degradatsiyasining oldini olish kabi yo'nalishlar nafaqat ekologik xavfsizlikka, balki sog'lom ijtimoiy muhitning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish

jarayoni energiya xavfsizligini mustahkamlab, iqtisodiyotning karbon iziga bo'lgan qaramligini kamaytiradi.

Ekologik nazorat choralari, jumladan, yashil makon siyosati, shaharsozlikda ekologik standartlarning qo'llanilishi va chiqindilarni boshqarishning zamonaviy tizimlari joriy etilishi, shahar infratuzilmasining ekologik barqarorligini ta'minlaydi. Bunda ekologik audit va BRM (barqaror rivojlanish maqsadlari) talablariga mos indikatorlarning qo'llanishi davlat boshqaruvi va iqtisodiy subyektlar faoliyatining barqarorlik darajasini obyektiv baholash imkonini beradi. Shu tariqa, ekologik nazorat tizimi nafaqat monitoring funksiyasini bajaradi, balki ekologik-iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Umuman olganda, ushbu sxemada aks etgan iqtisodiy, huquqiy, xavfsizlik va nazorat bloklarining o'zaro integratsiyasi mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishning institutsional asoslarini shakllantirib, iqtisodiy barqaror o'sishni ekologik muvozanatni saqlagan holda ta'minlashga imkon yaratadi. Yashil moliyalashtirish mexanizmlarining izchil rivojlanishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro moliyaviy oqimlarni jalb qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash orqali milliy rivojlanish strategiyasining muhim bo'g'iniga aylanadi.

Xulosa va takliflar.

Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil moliya bozorini barqaror rivojlantirish moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ekologik standartlar asosida muvofiqlashtirilgan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va resurslar oqimini ekologik samarador loyihalarga yo'naltirishni taqozo etadi. Xalqaro tashkilotlar, hukumat agentliklari va xususiy sektor o'rtasida shakllanayotgan institutsional hamkorlik esa yashil aktivlar bozorining diversifikatsiyasini kengaytirib, innovatsion moliyaviy instrumentlar qo'llanilishini jadallashtirmoqda. Yashil moliyalashtirish jarayonining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish, ekologik ta'sir bo'yicha aniq mezonlarni joriy etish orqali investorlar uchun xavflarni real baholash va kapitalni uzoq muddatli ekobarqaror yo'nalishlarga yo'naltirishda mustahkam kafolat yaratadi.

Yashil moliya ekotizimida institutlar, standartlar, verifikatsiya tizimlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlarning uyg'un ishlashi milliy iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasini izchil jadallashtirib, barqaror investitsion muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Yashil moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan fiskal rag'batlar, ekologik soliq siyosati, grantlar hamda investorlardagi ekologik xabardorlik bozorining institutsional barqarorligini mustahkamlamoqda.

Global yashil moliya indeksi (GGFI) esa davlatlarning yashil moliyaviy salohiyatini solishtirish imkonini berib, moliyaviy markazlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi standartlar va innovatsion yondashuvlarning o'rnatilishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, ekologik standartlarga mos tartibga solish metodologiyasi, shaffof axborot siyosati, auditorlik nazorati va mustaqil verifikatsiya mexanizmlarining joriy etilishi iqtisodiy subyektlarning ekologik javobgarligini kuchaytirib, barqaror investitsion qarorlarni rag'batlantiradi. Umuman olganda, moliyaviy hamkorlik mexanizmlari va samarali tartibga solish siyosatining uyg'unlashuvi yashil moliya bozorining institutsional mustahkamlanishiga, global ekologik kun tartibiga mos yuqori samarali yashil investitsion ekotizim shakllanishiga strategik asos yaratmoqda.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Hainan Wang, Jie Fu, Xue Lei, Wu Huang. (2025) *Transforming firms for a greener future: The role of green finance in shaping environmental performance in China.* // *Journal of Environmental Management*. Vol. 394. November.

Jiazhan Gao, Guihong Hua, Baofeng Huo. (2025) Green finance and high-quality development in China: Progress, impacts and mechanisms. // *Encyclopedia of Monetary Policy, Financial Markets and Banking*. Vol 2. Pages 549-558.

Shipan Sun, Yun Guo, Caiying Tian, Xia Xu, Abdul Ghaffar. (2025) Green finance and economic growth: Evidence from China's natural resource markets. // *Economic Analysis and Policy* Volume 87, September, Pages 2202-2222.

Sumedha Bhatnagar, Dipti Sharma, Rashmi Bundel. (2024) Green finance and investment index for assessing scenario and performance in selected countries. // *World Development Sustainability*. Vol 5. December.